

“AXLOQI KABIR” HAMDA “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARLARIDA ADOLAT KONSEPSIYASINING KOMPARATIV TAHLILI

Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1-kurs magistranti

+998 (88)267-18-01;

munisamannobova03@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Ikramova I.R.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Arastuning “Axloqi kabir” asari hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida adolat tushunchasining mazmun-mohiyati qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki mutafakkirning axloqiy-falsafiy qarashlari, adolatning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rni, uning ma’naviy hamda ijtimoiy ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, Arastu va Avloniy qarashlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar ilmiy asosda tahlil qilinib, adolat kategoriyasining Sharq va G‘arb tafakkuridagi talqini ochib beriladi. Maqola natijasida adolat tushunchasining universal axloqiy qadriyat sifatidagi ahamiyati haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Arastu, “Axloqi Kabir”, Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, adolat, odillik, tengsizlik, nohaqlik, yaxshilik, Zardusht, “asha” tushunchasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ сущности и содержания понятия справедливости в произведении Аристотеля «Большая этика» («Ахлоки кабир») и труде Абдуллы Авлони «Тюркский Гулистан или мораль» («Туркий гулистон ёхуд ахлоқ»). В ходе исследования освещаются этико-философские взгляды обоих мыслителей, роль справедливости в развитии общества и совершенствовании человека, а также её духовное и социальное значение. Кроме того, на научной основе анализируются сходства и различия в подходах Аристотеля и Авлони, раскрывается интерпретация категории справедливости в восточной и западной мысли. В результате исследования делаются выводы о значении понятия справедливости как универсальной моральной ценности.

Ключевые слова: Аристотель, «Большая этика», Абдулла Авлони, «Тюркский Гулистан или мораль», справедливость, честность, неравенство, несправедливость, добро, Заратустра, понятие «аша».

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the essence and core meaning of the concept of justice in Aristotle's work "Magna Moralia" ("Great Ethics") and Abdulla Avloni's work "The Turkish Gulistan or Morality". Throughout the study, the ethical and philosophical views of both thinkers, the role of justice in the development of society and human perfection, as well as its spiritual and social significance are highlighted. Furthermore, the similarities and differences in the perspectives of Aristotle and Avloni are analyzed on a scientific basis, revealing the interpretation of the category of justice in Eastern and Western thought. As a result of the article, conclusions are drawn regarding the importance of the concept of justice as a universal ethical value.

Keywords: Aristotle, "Magna Moralia", Abdulla Avloni, "The Turkish Gulistan or Morality", justice, fairness, inequality, injustice, goodness, Zoroaster, the concept of "asha".

KIRISH

Adolat tushunchasi insoniyat tafakkuri tarixida eng qadimiy va eng muhim axloqiy-falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib kelgan. U jamiyatning barqarorligi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning me'yoriy asosda tartibga solinishi hamda ma'naviy muvozanatning saqlanishida asosiy mezon sifatida qaraladi. Sharq va G'arb falsafiy an'alarida adolat masalasi turlicha yondashuvlarda talqin qilingan bo'lsada, uning mohiyati deyarli barcha davrlarda insoniylik, haqiqat va tenglik tamoyillari bilan bog'lab tushuntirilgan. Mazkur maqolada adolat konsepsiyasi ikki yirik mutafakkir – qadimgi yunon faylasufi Aristotelning "Nikomax axloqi" (ba'zan "Axloqi kabir" deb ham talqin qilinadi) asari hamda o'zbek jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy ning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari doirasida tahlil qilinadi. Shuningdek Arastuning axloqqa oid qarashlari "“Evdemning axloq kitobi” hamda "Katta axloq kitobi" risolalarida o'z aksini topgan"¹. Har ikkala asar ham axloqiy falsafa tarixida alohida o'rin egallab, adolat tushunchasini o'z davrining ijtimoiy-madaniy sharoitiga mos ravishda yoritib bergan.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, bir qancha durdona asarlar yaratilgan va ularning har biridagi ma'lumotlar boshqasida takrorlanmaydi. Xuddi shunday asarlardan hisoblangan Arastuning "Axloqu Kabir" va Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlari ham axloqshunoslikka oid asarlar bo'lsada, ikkisida keltirilgan axloqiy kategoriyalar turlicha yoritilib berilgan. Arastuning asarida yaxshi xulqning

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – B. 36.

ko‘rinishlaridan hisoblangan adolat tushunchasi Avloniyning asarida ham keltirilgan va adolat tushunchasi ikki asarda ikki xil yondashuv asosida yoritilib berilgan. Arastu esa o‘z asarida adolatni tenglikda ekanligini, inson o‘zida odillikni mujassam etishida deb hisoblaydi. Nohaqlik bor ekan adolatsizlik yuzaga kelaveradi. Umumiy jihatdan adolat va adolatsizlikni quyidagicha yoritib berish mumkin: “Adolatsizlik (nohaqlik) qiluvchi odam (yaxshi narsalar – ne‘matlarni) o‘ziga ko‘proq, ya’ni ortiqcha oladi, adolatsizlikka uchragan, jabr ko‘rgan esa keragidan kamroq oladi (yoki hech narsa olmaydi)”². Arastu ushbu fikrlari orqali adolat tenglikda ekanligini isbotlab bermoqda. Ko‘pning ham, ozning ham o‘rtasi bu adolatdir. Axloqiy jihatdan adolat va adolatsizlik “taqsimot mezoni” orqali ifoda etilmoqda. Inson adolatsiz ekan o‘z nafsining quliga aylanib boradi. Chunki, nafs uni yomon xulqqa tayantirib qo‘yadi va o‘z manfaati uchungina o‘zganing ulushiga ham xiyonat qiladi. Aynan mana shu adolatsizlikning bir ko‘rinishidir. Natijada esa ijtimoiy nuqtai nazardan baho berilsa, jamiyatda tengsizlikni kuchaytirib yuboradi. Bu esa ijtimoiy norozilik, ishinchsizlik va barqarorlikning pasayishiga olib keladi.

Arastu adolatni Aflotunning “Davlat” asaridan keltirilgan fikrlarga qiyoslaydi. “...Dehqon binokorga don beradi, binokor dehqonga uy qurib beradi. Boshqa shu kabi hunarmandlar ham o‘z mahsulotlarini o‘zaro ayirbosh qiladilar”³. Aflotun fikrlari barcha jamiyat hayoti ham aloqadorlikda bo‘lgani kabi adolatni ham shunday ekanligini ko‘rsatib beradi. Bu haqiqiy ma’noda jamiyatni ham adolat asosiga qurmoq keraklini olg‘a suradi. Arastu ham shu fikrlar tarafdori sanaladi. Jamiyatda adolat shakllanar ekan albatta har jabhada adolatni ko‘rsak bo‘ladi. Masalan, qonuniy adolat, jamiyatdagi adolat, fuqarolik adolati, tabiiy adolat va shu kabilar. Bilishimiz mumkinki, bu turdagi adolatlar o‘z o‘zidan shakllanib qolmagan. Xususan, qonuniy adolat va jamiyatdagi adolat ko‘rinishlari. Buning yorqin namunasini davlat, uning qonunlari va jamiyatning hayotida bilsak bo‘ladi. Fuqarolik adolatida esa o‘xshashlik va tenglik yetakchilik qiladi. Misol tariqasida ota va o‘g‘il munosabatlarini keltirsak bo‘ladi. Bu yerda tenglik deganda farzandning ota bilan teng ekanligi emas, balki ota farzandiga nisbatan adolatli munosabatni shakllantirishi tushunilsa, ayol bilan erkak o‘rtasida tenglik mavjud emas va bu fuqarolik jihatidan ikkisining ham inson ekanligi, ularning bir biri bilan yaqinlikda hayot kechirmoqlari, oila uchun birgalikda harakat qilmoqlari adolatli tenglikning namunasidir. Demak, bilsak bo‘ladiki adolat insonning o‘z ixtiyoriy jihati. Negaki, adolatli bo‘lish ham, adolatsiz bo‘lish ham insonning o‘ziga bog‘liq. Inson ulg‘ayib borar ekan oqni qoradan, yaxshini yomondan,

²Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar Zo‘hir A‘lam va Urfon O‘tajon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 yil. – B.143.

³Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar Zo‘hir A‘lam va Urfon O‘tajon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 yil. – B. 144.

halolni haromdan ajrata boshlaydi. Shuningdek, inson o'zida adolatli bo'lishni ham shakllantirishi mumkin. Chunki, inson tabiati o'zgaruvchidir va agar o'zi xoxlasagina yaxshi narsalarni o'ziga qabul qila oladi.

Avloniy adolatni quyidagicha keltiradi: "Adolat va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'rmagan bir ishni o'zgalarga ravo ko'rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o'zi ila barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilir"⁴. Bularning barchasidan ko'rinib turibdiki, adolatli bo'lmoqlik faqatgina o'zganing moliga, nomusiga va ularga nisbatan jabr-zulmdan saqlanishga aytilmaydi. Adolatli bo'lish inson o'zini hurmat qilishi, o'zini qanchalik yaxshi ko'rsa, o'zi uchun yomonlikni ravo ko'rmasa o'zgaga ham shuni ravo ko'rishidir. Haqiqatdan, inson birgina o'zi adolatli bo'la olmaydi. Jamiyat, atrofidagi insonlar bilangina adolatli bo'lishi mumkin. Ya'ni, ko'rinib turganidek adolatli inson o'zi uchun ma'qul deb bilmagan yomonlik va xatolarni o'zidan uzoq saqlar ekan, atrofidagilarni ham yiroq tutmog'i darkor. Bu esa albatta adolatli insonning go'zal bir fazilatini namoyon etadi va yaqinidagilarni ham yaxshilik sari yetaklaydi.

Arastu va Avloniy ham o'z asarlarida aynan adolatni kengroq tariflar ekanlar, imkon qadar insonning har bir jihati bir biri bilan aloqadorlikda shakllanishini ham ko'rsatib beradilar. Ya'ni, oqillikka, odilikka ega yaxshi insonlar adolatli bo'lishi mumkin, tengsizlikni va yomon xulqlarni o'zida jamlaganlar esa adolatsiz hisoblanadi. Lekin, Arastu shu borada ham takidlaydiki, inson o'zi bilmasdan, anglamasdan qilgan harakatlari adolatsizlik sanalmaydi. Masalan, chaqaloqlar otanasi va yaqinlarini urishi mumkin. Bu chaqaloqdagi adolatsizlik emas. Chunki, chaqaloqlar nima harakat qilayotganlarini hali anglamaydilar. Shunday ekan insonda adolat o'z o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Inson o'zi ustida ishlar ekan, o'zi uchun yaxshilikni tilar ekan, o'zini anglab borar ekan albatta, o'zgaga ham mana shularni tilaydi. Bu esa inson shakllanib borgani sayin adolatli bo'la boshlashi mumkinligini ko'rsatib beradi.

Ushbu ikki asarni o'rganish orqali axloqshunoslikka oid ko'pgina bilimlarni egallash mumkin. Yuqorida biz ko'rib o'tgan adolat tushunchasi esa ularning kichik bir bo'laki sanaladi. Albatta umumiy olganda. Lekin, adolatning birgina o'zi esa keng qamrovli kategoriyadir. Adolatni hamma o'zicha talqin qiladi. Mualliflar ham ko'rinib turibdiki, Avloniy umumiy tarzda qisqa va lo'nda ifodalab asoslab bergan bo'lsa, Arastu esa har biriga alohida-alohida to'xtalgan va misollar bilan asoslab keltirib bergan. Adolat konsepsiyasi Sharqda Avloniy qarashlaridan avvalgi davrlardan boshlab e'tibor qaratilgan va undagi mohiyatlar jadid ma'rifatparvarining

⁴ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2020. – B.23.

qarashlarida yana ham boyitilgan. Xususan, qaimgi tarixga ega Zardushtiylik ta'limotida "adolat zulm ustidan tantana qilmog'i darkor"⁵ va Zardusht adolatni "asha" tushunchasi orqali ifodalaydi hamda uni olamdagi ikki qutbdan biri deb hisoblaydi. Yunon faylasufi Aflotun adolat muammosini tizimli tarzida o'rganib chiqqan. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida adolat hukmronlik va imtiyoz tushunchalariga yaqin kategoriya sifatida sharhlangan. Faylasufning fikricha, har bir tabaqa ichida tenglik bo'lmog'i, tabaqalar o'rtasida tenglik hukm surmog'i adolatdandir. Arastu bu g'oyalarni rivojlantirib, "tenglashtirish" va "taqsimlash adolati" degan tushunchalarni qo'llagan. Forobiy adolatni ijtimoiy iyerarxiya va tartibning mavjud bo'lishi uchun poydevor yaratuvchi huquqiy kategoriya deb hisoblagan. Demak, har bir natija uchun ham nimadir ta'sir etganidek, Arastuning ham qarashlarida o'zidan avvalgi faylasuflarning ta'siri yuqoridir. Sharq allomalari orasida ham qadimgi g'arb faylasuflari g'oyalari qaysidir ma'noda asos bo'lgan yoki katta ta'sir etgan. Sharq faylasuflari sharqona ruhdagi inson axloqiga mos fikrlarni bildirib o'tganlar. Masalan, Abu Nasr Farobiy kabi faylasuf, allomalar. Farobiyning mashhur "Fozil odamlar shahri" asari orqali adolatli hukmdor va adolatli jamiyat mezonlarini uchratamiz. Abdulla Avloniy ham sharq xalqlariga xos bo'lgan jihatlarni aynan mana shu "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida bayon etdi. Arastu va Abdulla Avloniyning asarlaridan umumiy jihatlarni bilsak bo'ladiki, insondagi xulqning shakllanishi nafaqat muhitning ta'siri, balki insonning ichki olamiga bog'liqdir.

XULOSA

Mazkur ikki mutafakkirning qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular turli madaniy va tarixiy sharoitlarda yashagan bo'lsalar-da, adolatni jamiyat va inson kamolotining ajralmas asosi sifatida talqin qilganlar. Aristotelda u tizimli falsafiy kategoriya sifatida chuqur nazariy asosga ega bo'lsa, Avloniyda adolat ko'proq ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq. Aristotel o'zining "Nikomax axloqi" asarida adolatni fazilatlarining eng oliysi deb hisoblaydi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida Abdulla Avloniy adolatni inson tarbiyasi, jamiyatning ma'naviy pokligi va ijtimoiy tartibning asosiy sharti sifatida ko'radi. U adolatli insonni fazilatli shaxs, jamiyat uchun foydali va mas'uliyatli fuqaro sifatida tasvirlaydi. Avloniy axloqiy tarbiya orqali adolat tuyg'usini shakllantirish mumkinligini ta'kidlab, yosh avlodni vatanparvarlik, halollik va insoflilik ruhida tarbiyalashga chaqiradi. Uning qarashlarida adolat nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy tushuncha, balki inson qalbining pokligi va vijdoniy uyg'oqligi bilan uzviy bog'liq axloqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

⁵ Anvar Choriyev. Inson falsafasi. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. – Toshkent, 2007. – B. 36.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2020. – 96 b.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 328 b.
3. Anvar Choriyev. Inson falsafasi. Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. – Toshkent, 2007. – 416 b.
4. Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2015 йил. - 352 б.
5. <https://oyina.uz/uz/teahause/1222>
6. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/adolat/>